

O'RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA'LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O'TKAZISH UCHUN UMUMIY KIMYO FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta'lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Umumiy kimyo fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo'llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me'yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko'nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me'yoriy asoslar

1.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi **"Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"**gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

I. Umumiy kimyo

1. Umumiy kimyo;
2. Anorganik kimyo;
3. Organik kimyo;
4. Analitik kimyo;
5. Fizikaviy kimyo.

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstuktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
1	Kimyoning asosiy tushunchalari va qonunlari	Kimyoning asosiy tushunchalari va qonunlarini hamda nazariyalarini bilish, tushunish, kimyoviy kinetika, eritmalar va eritmada boradigan jarayonlarni biladi, tushunadi, oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari (elektroliz), ularning tenglamalarini tuzishni biladi va shular asosida misol va masalalar yecha oladi.	25%	10 ta
2	Anorganik moddalarning eng muhim sinflari	Anorganik moddalarning eng muhim sinflari, metallar va metallmaslarning xossalarini farqlash, tushunish va shular asosida misol va masalalar yecha oladi.	17,5%	7 ta
3	Organik birikmalarning tuzilish nazariyasi va undan kelib chiqadigan xulosalar	Organik birikmalarning tuzilish nazariyasi va undan kelib chiqadigan xulosalarni biladi, organik birikmalarning sinflarini, xossalarini, qo'llanilishini tushuntira olish, ular asosida misol va masalalar yecha oladi;	12,5%	5ta
4	Analitik kimyoning miqdor va sifat nazariyasi	Analitik kimyoning asosiy tushunchalari sifat va miqdor nazariyalarini bilish, tushunish, eritmalar va eritmada boradigan jarayonlarni biladi, oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarining kimyoviy potentsiali (redoks), va shular asosida misol va masalalar yecha oladi.	22,5 %	9 ta
5	Fizikaviy kimyoning nazariy asoslari	Fizikaviy kimyoning asosiy tushunchalari va qonunlarini hamda nazariyalarini bilish, tushunish, kimyoviy kinetika, termodinamika eritmalar va eritmada boradigan jarayonlarni biladi, tushunadi, va shular asosida misol va masalalar yecha oladi.	22,5%	9 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarini eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	10 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	75 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	15 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarni topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha 15 % vaqt beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Tavsiya etilgan adabiyotlar

I.R.Asqarov, K.G'opirov, D.Azamatova, Sh.Ganiyeva 7-sinf «SHARQ» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, Toshkent — 2022

2. I.R.Asqarov, K.G'opirov, D.Azamatova, Sh.Ganiyeva 7-sinf «SHARQ» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, Toshkent — 2022

3. I.R.Asqarov, K.G'opirov, N.X.To'xtaboyev 8-sinf Toshkent «Yangiyo'l POLIGRAPH SERVICE» 2019.

4. I.R.Asqarov, K.G'opirov, N.X.To'xtaboyev 8-sinf Toshkent «YANGIYUL POLIGRAPH SERVICE» 2019

5. I.R.Asqarov, K.G'opirov, N.X. To'xtaboyev 9-sinf Toshkent «O'ZBEKISTON» 2019
6. I.R.Askarov, N.X.Tuxtabayev, K.G.Gapirov, класс-9, “Главная редакция ИПАК” “Sharq”, 2017.
7. I.Ismatov, D.Azamatova 10-sinf RTM yangi nashr Toshkent – 2022
- 8.S.Masharipov, A.Mutalibov, E.Murodov, H.Islomova. 11-sinf G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent – 2018
- 9.S.Masharipov, A.Mutalibov, E.Murodov, X.Islomova; класс-11, Издательско полиграфический творческий дом имени G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Tashkent – 2018
10. PISA: “Естественнонаучная грамотность” https://rikc.by/ru/PISA/3-ex_pisa.pdf
11. Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning tabiiy fanlar bo'yicha savodxonligini baholash,“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, Toshkent – 2019.
12. Anorganik kimyo nazariy asoslari.N.A. Parpiyev, H.R. Rahimov, A. G. Muftaxov, I BOB.
13. Turabov N.T., Qutlimurotova N.H., Smanova Z.A. Analitik kimyo. Toshkent, «Noshir», 2019, 247 b. I Bob.
14. Fizikaviy kimyo Akbarov H.I., Sagdullayev B.U., Xoliqov A.J., V BOB 2018.
15. Файзуллаев О.Аналитик кимё асослари. А Қодирий. Тошкент. 2003 й. 443б.15-BOB.
16. Anorganik kimyo nazariy asoslari.N.A. Parpiyev, H.R. Rahimov, A. G. Muftaxov, I BOB.